

## № «LoanId»- SONLI ONLAYN MIKROKREDIT SHARTNOMASI

Toshkent sh.

«Date» y.

ATB "TBC Bank", bundan buyon "Bank" deb ataluvchi, nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruv raisi «DisbursementResponsiblePerson» bir tarafdan va o‘zini o‘zi band qilgan shaxs «FullName» O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, keyingi o‘rinlarda “Qarz oluvchi” deb ataluvchi (JShShIR: «PersonalNumber»), birgalikda “Tomonlar” deb nomlanib, ushbu onlayn mikrokredit (bundan buyon “Shartnoma” deb nomlanuvchi) Shartnomasini quyidagilar haqida tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Shartnoma shartlariga muvofiq, Bank Qarz oluvchiga ariza/so‘rov asosida, Bank tomonidan tasdiqlangan miqdorda onlayn mikrokredit taqdim etadi va ushbu shartnoma shartlari, www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan ATB "TBC Bank"ning mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etishning Bosh shartlariga muvofiq, Qarz oluvchi Bankdan olingan to‘liq mikrokreditni qaytarib berishga va undan foydalanish uchun foizlarni to‘lashga rozi bo’ladi.
- 1.2. Ushbu shartnoma Bosh shartlarning ajralmas qismidir.
- 1.3. Ushbu shartnomada qo’llanilgan atama va ta’riflar Bosh shartlarda ko ‘rsatilgan.

### 2. SHARTLARI VA TO ‘LOVI

- 2.1. Onlayn mikrokredit quyidagi shartlar asosida beriladi:
  - 2.1.1. Onlayn mikrokredit summasi: «Amount» («AmountInWords») so‘m;
  - 2.1.2. Onlayn mikrokredit muddati: «TermInMonths» oy/kun;
  - 2.1.3. Onlayn mikrokredit valyutasi: O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi;
  - 2.1.4. Onlayn mikrokredit berish muddati bank tomonidan ariza tasdiqlanganidan keyin 10 ish kunidan oshmaydi;
  - 2.1.5. Taqdim etish shakli: naqd pulsiz o‘tkazma;
  - 2.1.6. Mikrokreditni ajratish usullari: Bankning ixtiyoriga ko‘ra Bankda ochilgan talab qilib olunguncha hisobraqamga yoki Bank tomonidan emissiya qilingan bank

kartasiga mablag‘larni ajratish amalga oshiriladigan ilovalarning mavjud funksiyalariga muvofiq o‘tkazish.

Onlayn mikrokredit to‘lov tizimlari yoki uchinchi shaxslarning mobil ilovalari orqali berilgan taqdirda: boshqa banklar tomonidan chiqarilgan bank kartalariga.

- 2.1.7. To‘lash tartibi: mobil ilovada mavjud bo‘lgan annuitet usuli bilan hisoblangan jadvalga muvofiq.
- 2.2. Foiz to‘lovlari:
  - 2.2.1. Asosiy qarz qoldig‘i bo‘yicha hisoblangan foizlar: «Interest»% yillik;
  - 2.2.2. Muddati o‘tgan asosiy qarzning qoldig‘i bo‘yicha oshirilgan foizlar: «PenaltyRateModifier» % yillik;
- 2.3. Qarz oluvchi tomonidan qabul qilingan onlayn mikrokreditni hisobga olish uchun Bank qarz oluvchiga tegishli hisobvaraqlarni ochadi.
- 2.4. Qarz oluvchi ushbu bilan Bankka barcha hisobvaraqlardan (shu jumladan, bankda ochilgan depozit hisobvarag‘idan) va Qarz oluvchining O‘zbekiston Respublikasining istalgan banklarida ochilgan (shu jumladan ilgari qo‘shilgan, keyinchalik esa TBC UZ mobil ilovasidan o‘chirilgan (ajratilgan)) bank kartalaridan Bankka to‘lashi kerak bo‘lgan shuningdek Qarz oluvchiga Bank tomonidan xatolik bilan o‘tkazilgan pul mablag‘larni avtomatik yechib olishga o‘z roziliginu, ko‘rsatma va vakolat beradi.
- 2.5. ‘To‘lov sanasi bank tomonidan avtomatik tarzda belgilanadi va mobil ilova interfeysida Qarz oluvchining e‘tiboriga yetkaziladi.
- 2.6. Sharhnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi onlayn mikrokredit olish uchun ariza berish paytida, mikrokredit ajratilishida yoki skoring amalga oshirilishida foydalilanilgan Bank mobil ilovasiga qo‘shilgan (yoki biriktirilgan) bank kartalarini TBC UZ mobil ilovasidan ajratmaslik/o‘chirib tashlamaslik majburiyatini oladi.
- 2.7. Bunda, agar ushbu sharhnomada amal qilish muddati mobaynida qarz oluvchi oylik ish haqi yoki asosiy daromadi tushadigan bank kartasini muddati tugaganligi sababli yangilaganda, boshqa bank kartasiga almashtirganda yoki yangi karta ochganda, qarz oluvchi ushbu kartani TBC UZ mobil ilovasiga zudlik bilan qo‘sish (biriktirish) majburiyatini oladi.

### **3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

- 3.1. Bank huquqlari:
  - 3.1.1. Zarur hollarda qarz oluvchidan onlayn mikrokredit mablag‘laridan foydalanganligi haqida ma’lumot so‘rash, shu jumladan onlayn mikrokredit mablag‘larining maqsad va sabablari to‘g‘risida og‘zaki / yozma tushuntirishlar olish. Agar Qarz oluvchi tomonidan tegishli tushuntirishlar berilmasa, ‘Bankda ochilgan hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalari to‘xtatib turish.
  - 3.1.2. Bank quyidagi hollarda qarz oluvchidan onlayn mikrokredit muddatidan oldin to‘lashni (hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda) talab qilishga haqlidir:

- 3.1.2.1. Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnama va Bosh shartlar bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarning buzilishi, bajarilmasligi va / yoki lozim darajada bajarilmaganligida;
  - 3.1.2.2. Ushbu shartnama va Bosh shartlardan kelib chiqadigan onlayn mikrokredit bo‘yicha asosiy qarzni, foizlarni, boshqa to‘lovlarni o‘z vaqtida qaytarmasligida;
  - 3.1.2.3. Bosh shartlarda va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 3.1.3. Qarz oluvchidan onlayn mikrokredit to‘lovlarini va boshqa to‘lovlarni, zudlik bilan, muddatidan oldin to‘lashni talab qilish, agar quyidagi holatlar yuz bersa va davom etsa:
- 3.1.3.1. Qarz oluvchining har qanday kredit qarzi bo‘yicha (ushbu shartnama bundan mustasno) majburiyatlarni bajarmaslik;
  - 3.1.3.2. Qarz oluvchining har qanday davlat organi tomonidan mol mulkni yoki boshqa aktivlarini to‘liq yoki har qanday muhim qismini musodara qilish, milliylashtirish yoki boshqa yo‘l bilan ekspluatatsiya qilish, Qarz oluvchining mol-mulkini va boshqa aktivlarini saqlash yoki nazorat qilish, yoki Qarz oluvchining onlayn mikrokreditini to‘lashga to‘sinqilik qiladigan har qanday harakatlarda;
  - 3.1.3.3. Qarz oluvchi yoki unga bog‘liq bo‘lgan uchinchi shaxslarga nisbatan har qanday tarzda sud jarayoni yoki jinoiy ishlari bo‘yicha fuqarolik ishlari yuritsa, agar bu Qarz oluvchining to‘lov qobiliyatiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa.
  - 3.1.3.4. Bankda firibgarlikka qarshi kurashish borasida bankning ichki siyosati va tamoyillariga muvofiq ushbu shartnama bo‘yicha olingan mablag‘lardan foydalanish / tasarruf etish borasida shubha tug‘ilsa.
- 3.1.4. O‘z ixtiyori bilan, o‘z mablag‘lari hisobidan, qarz oluvchini ogohlantirmsandan onlayn mikrokreditni to‘lamaslik xavfini sug‘urta qilish.
- 3.1.5. Bank ushbu Shartnomaning 2.4-bandda ko‘rsatilgan Qarz oluvchining roziligi asosida Bank va boshqa banklarda ochilgan barcha hisobvaraqlar va bank kartalaridan, shuningdek Bankda ochilgan har qanday Depozit hisobvarag‘idan quyidagi mablag‘larni avtomatik ravishda hisobdan chiqaradi:
- 3.1.5.1. To‘lovlar jadvali bo‘yicha qaytarilish kunida asosiy qarz miqdori va undagi foizlar;
  - 3.1.5.2. Muddati o‘tgan asosiy qarz uchun hisoblangan foizlar summasi, muddati o‘tgan foizlar summasi, muddati o‘tgan asosiy qarzlar summasi.

- 3.1.6. Ushbu shartnoma shartlari va qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarining bajarilishi to‘g‘risida kredit byurosi va Kredit Axboroti Davlat Reestriga ma’lumot berish.
  - 3.1.7. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotni tekshirish yoki qo‘sishmcha identifikatsiyalash jarayonini (shaxsini tasdiqlash) amalga oshirish uchun UShda ko‘rsatilgan aloqa kanallari orqali Qarz oluvchi bilan bog‘lanish.
- 3.2. Bank majburiyatları:
- 3.2.1. Qarz oluvchiga Bank tomonidan tasdiqlangan miqdorda onlayn mikrokredit taqdim etish;
  - 3.2.2. To‘lovlardan xabardor qilish uchun Bosh shartlarda ko‘rsatilgan aloqa kanallaridan foydalanish.
- 3.3. Qarz oluvchining huquqlari:
- 3.3.1. Bosh shartlarda ko‘rsatilgan aloqa kanallari orqali qarzlar va onlayn mikrokreditni to‘lash shartlari to‘g‘risida ma’lumot olish;
  - 3.3.2. Istalgan onlayn mikrokredit qarzlarni muddatidan oldin to‘liq yoki qisman, Bank tomonidan jarimalar undirmasdan to‘lash.
  - 3.3.3. Shartnoma tuzilgandan so‘ng pul mablag‘larini olishdan oldingi davrda bepul tarzda mikrokredit olishdan rad etish.
- 3.4. Qarz oluvchining majburiyatları:
- 3.4.1. To‘lovlar jadvaliga muvofiq ushbu shartnoma va Bosh shartlarida nazarda tutilgan to‘lovlanri o‘z vaqtida amalga oshirish;
  - 3.4.2. Bankdan ushbu Shartnoma va Bosh shartlariga muvofiq muddatidan oldin qaytarib berish talabi olingandan keyin olingan onlayn mikrokreditni qaytarish va onlayn mikrokredit va boshqa to‘lovlardan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni to‘lash.
  - 3.4.3. 3 kalendar kuni davomida masofaviy aloqa kanallari orqali va / yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘limlarga yoki bank xizmat ko‘rsatish markazlariga tashrif buyurish orqali, ushbu shartnoma tuzilgandan so‘ng pasport va boshqa ma’lumotlarning o‘zgarishi, shu jumladan: uyali telefon raqami, ish telefon, ro‘yxatdan o‘tgan manzillari, yashash joyi, ish joyi (daromad manbai), familiyasi yoki ismi va Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma va Bosh shartlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlarda o‘zgarishlar amalga oshirilgan taqdirda Bosh shartlar doirasida va unda belgilangan tartibda Bankni xabardor qiladi.
- 3.5. Qarz oluvchi ushbu shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar yoki ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar vakolatli davlat organlarida ro‘yxatdan o‘tgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida o‘z faoliyatini/maqomini o‘zgartirishga, tugatishga yoki to‘xtatib turishga haqli emas.

3.6. Qarz olvchi o‘zini o‘zi band qilgan shaxs maqomini yo‘qotgan holatlarda, jumladan kasbiy daromad solig‘i to‘lovchisi sifatida hisobdan chiqarilganda, vakolatli davlat organlarida ro‘yxatga olingan faoliyatini to‘xtatganda yoki tugatganda, shuningdek ushbu shartnoma tuzilishiga asos bo‘lgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxsning huquqiy maqomini yo‘qotishning boshqa holatlarida, Bank Qarz oluvchidan mazkur shartnoma bo‘yicha barcha majburiyatlarni muddatidan oldin bajarishni talab qilishga haqli. Bu majburiyatlarga asosiy qarzning qolgan to‘liq summasini, hisoblangan foizlarni, neustoykalarini (jarimalar, penyalar) va shartnoma shartlariga muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan boshqa summalarini to‘lash kiradi.

#### 4. QAYTARISH TARTIBI

- 4.1. Shartnoma bo‘yicha foizlar kunlik asosiy qarz qoldig‘iga nisbatan hisoblanadi. Foizlarni hisoblash uchun yiliga 365 kun hisob usuli qo‘llaniladi.
- 4.2. Asosiy qarzning muddati o‘tgan qismi uchun foiz stavkasi kechiktirilgan kunning birinchi kunitdan boshlab onlayn mikrokreditning muddati o‘tgan qismi to‘liq qoplanmaguncha hisoblanadi. Muddati o‘tgan asosiy qarz bo‘yicha foizlar ushbu shartnomaning 2.2.2.-bandida ko‘rsatilgan stavka bo‘yicha hisoblanadi.
- 4.3. Agar har qanday to‘lovlarni amalga oshirish kuni ishlanmaydigan bank kuniga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, to‘lov ishlamnaydigan bank kunitdan keyingi kunga o‘tkaziladi.
- 4.4. Avtomatik yozib olish xizmati onlayn mikrokredit oлган paytdan boshlab Bank tomonidan faollashtiriladi va Qarz oluvchi ushbu xizmatni Bankdan ixtiyoriy olishni qabul qiladi va tasdiqlaydi.
- 4.5. Qarz oluvchi Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasining barcha banklarida Qarz oluvchiga tegishli bank kartalaridan, shuningdek yangi ochilgan bank kartalaridan onlayn mikrokredit to‘lovlari uchun shubhasiz yechib olinishiga rozilik beradi.
- 4.6. Mazkur Shartnoma bo‘yicha qarzdorliklarni undirish Bank tomonidan quyidagi tartibda avtomat ravishda hisobdan chiqarish yo‘li bilan amalga oshiriladi:
  - 4.6.1. proporsional ravishda muddati o‘tgan asosiy qarzdorlik, muddati o‘tgan foizlar to‘lovlari va muddati o‘tgan asosiy qarz bo‘yicha foizlar;
  - 4.6.2. joriy davr uchun hisoblangan foizlar;
  - 4.6.3. joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;
  - 4.6.4. hisoblangan jarimalar;
  - 4.6.5. hisoblangan penya;
  - 4.6.6. Bankning qarzdorlikni to‘lash bilan bog‘liq boshqa xarajatlari.
- 4.7. Qarz oluvchi tomonidan mobil ilova interfeysida “muddatdan oldin so‘ndirish” bo‘limiga muvofiq mikrokredit muddatidan oldin qaytarilgan taqdirda, Bank tomonidan to‘lovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
  - 4.7.1. to‘lov kunida hisoblangan foizlar qoldig‘i;
  - 4.7.2. asosiy summaning qolgan qismi.

- 4.8. Shu bilan birga, dastlabki jadval qayta hisoblab chiqiladi, bunda asosiy qarzning muddatidan oldin to‘langan qismi jadvalga muvofiq keyingi to‘lovlarga nisbatan hisobga olinadi va faqat hisoblangan foizlar asosiy qarzning qoldig‘i kredit shartnomasining amal qilish muddati tugagunga qadar annuitet usuli bo‘yicha hisob-kitobga kiritilgan kungacha to‘lanadi.
- 4.9. Ilova interfeysida Qarz oluvchi tomonidan onlayn mikrokreditni "jadval bo‘yicha" so‘ndirish yoki qarzni uchinchi shaxslarning to‘lov xizmatlari orqali so‘ndirish tanlangan taqdirda, mablag‘lar 29801-hisobraqamga kelib tushadi va jadval bo‘yicha so‘ndirish kunigacha hisobda qoladi. Jadval bo‘yicha to‘lov kunida mablag‘lar avtomatik ravishda hisobdan chiqariladi va jadval bo‘yicha kreditni so‘ndirishga yo‘naltiriladi.
  - 4.9.1. Agar birinchi so‘ndirishdan so‘ng hisobvaraqa mablag‘lar qolsa, bunday mablag‘lar jadvalda nazarda tutilgan miqdorda va muddatlarda avtomatik ravishda hisobdan chiqariladi.
  - 4.9.2. Agar hisobvaraqa mablag‘lar qolsa va Qarz oluvchi muddatidan oldin so‘ndirishni amalga oshirsa, ushbu mablag‘lar birinchi navbatda so‘ndirishga yo‘naltiriladi.
  - 4.9.3. Agar muddatdan oldin so‘ndirishda hisobvaraqdagi mablag‘lar qoldig‘i Qarz oluvchining qarzi miqdoridan ko‘p bo‘lsa, kredit to‘liq muddatidan oldin so‘ndirilgandan so‘ng hisobvaraqa qolgan mablag‘lar Qarz oluvchining joriy hisobvarag‘iga, jismoniy yoki virtual kartasiga qaytariladi.

## **5. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI**

- 5.1. Bank ushbu shartnama bo‘yicha to‘lanmagan mablag‘larni qaytarishni, barcha hisoblangan foizlar va boshqa qo‘srimcha talablarni to‘lashni, shuningdek qarzdorning ish haqi, boshqa pul mablag‘lari va uning boshqa likvidli mol-mulki orqali bankka yetkazilgan barcha yo‘qotishlar va zararlarni qoplashni talab qilishga haqlidir.
- 5.2. Qarzdorning MBX (masofaviy bank xizmati) funksiyalari va onlayn mikrokredit mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq barcha harakatlar uchun javobgarlik qarz oluvchi tomonidan amalga oshiriladi.
- 5.3. Onlayn mikrokredit berish bo‘yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki o‘z vaqtida bajarilmagan taqdirda, Bank qarz oluvchiga qoidabuzarlik vaqtida O‘zbekiston Respublikasi hududida amalda bo‘lgan bazaviy hisoblash miqdorining 10%ni miqdorida bir martalik jarima to‘lashi shart.
- 5.4. Agar Qarz oluvchi kechiktirilgan to‘lovlarni to‘lash majburiyatini kechiktirilgandan keyin 2 (ikki) kalendar kun ichida to‘lamasa, Bank Qarz oluvchidan 50 000 (ellik ming) so‘m miqdorida jarima undirishga haqli.

- 5.5. Bank va Qarz oluvchi ushbu Shartnomadan yoki u bilan bog‘liq holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizolarni ikki tomonlama muzokaralar yo‘li bilan hal qilishga harakat qiladi.
- 5.6. Agar nizo murosa yo‘li bilan hal etilmasa, u holda mazkur nizo Bankning ixtiyoriga ko‘ra:
  - Bankning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan manzili yoki Qarz oluvchining yashash manzili bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik ishlari bo‘yicha tegishli sudida;
  - yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda notarial ijro yozuvini olish orqali yakuniy hal qilinishi kerak. Notarial ijro yozuvini olish orqali qarzni undirishda Qarz oluvchi notarial ijro yozuvining haqiqiyligini tortishuvga o‘rin qoldirmaydigan tarzda tan oladi.
- 5.7. Bank va Qarz oluvchining ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq qo ‘llaniladi.
- 5.8. Ushbu shartnomada va Bosh shartlarda ko‘zda tutilmagan hollarda, Bank va Qarz oluvchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi asoslanadi.

## 6. BOSHQA SHARTLAR

- 6.1. Qarz oluvchi Bank tomonidan quyidagi harakatlarga so‘zsiz huquq va rozilik beradi:
  - 6.1.1. Ushbu shartnomada, shuningdek, bank ma‘lumotlar bazasida va / yoki kredit byurosining (keyingi o‘rinda byuro) ma‘lumotlar bazalarida saqlanayotgan qarz oluvchining ma‘lumotlarini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda utilgan qoidalarga muvofiq kredit layoqatini baholash maqsadida qayta ishlash. Qarz oluvchi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda utilgan huquqlardan xabardor bo‘lib, unga muvofiq qarz oluvchining iltimosiga ko‘ra, ma‘lumotlar ishlov beruvchisi to‘liq bo‘lmagan, noto‘g‘ri, eskirgan yoki noqonuniy ravishda olingan va qayta ishlangan, ma‘lumotlarni to‘g‘irlashi, yangilashi, qo‘sishi, bloklashi, yo‘q qilishi lozim va bu bir martalik kelishuv shartnomaning majburiyatlari / amal qilish muddati tugaguniga qadar amal qiladi;
  - 6.1.2. Qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini skoring modellari bilan baholash jarayonida Bank Qarzdor haqidagi erkin/ochiq foydalanishda bo‘lgan har qanday turdagи ma‘lumotlardan, shuningdek, ushbu turdagи xizmat ko‘rsatuvchilardan olingan ma‘lumotlar, agar ushbu ma‘lumotlarni olish va ulardan foydalanish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi zid bo‘lmasa foydalanish huquqiga ega.
  - 6.1.3. Qarz oluvchining ushbu shartnoma va Bosh shartlar bo‘yicha majburiyatlarini bajarish masalasida telefon raqamlariga, ijtimoiy tarmoqlarga qo‘ng ‘iroqlarini

amalga oshirish va ularni yozib olish, qarzdorning ma'lum bank manzillari (rekvizitlari) bo'yicha xatlar, elektron va SMS xabarlarni yuborish;

- 6.1.4. Qarz oluvchi bilan ushbu shartnomaga bo'yicha qarzdorning majburiyatlarini bajarish masalasida muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish.
- 6.2. Qarz oluvchi tomonidan, masofaviy aloqa kanallari orqali bank operatsiyalari davomida amalga oshirilgan tasdiqlashlar, qog'oz hujjatdagi yozma imzo bilan bir xil yuridik ahamiyatga ega.
- 6.3. Tomonlar, raqamli shakldagi hujjatlar, Qarz oluvchi imzolagan bosma hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligini tasdiqlaydilar. Shunday qilib, raqamli hujjat, tomonlar o'rtasidagi nizolar kelib chiqishida sabab bo'la olmaydi.
- 6.4. Onlayn mikrokredit taqdim etish shartnomasi ushbu shartnomaning 2.1.6 bandiga muvofiq tarzda qarz mablag'larining kirim qilingan vaqtidan boshlab tuzilgan hisoblanadi va Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.
- 6.5. Onlayn mikrokreditni qaytarish jadvali qayta rasmiylashtirilsa, ilgari mavjud bo'lgan qaytarish jadvali qayta rasmiylashtiruv amalga oshirilgan kundan boshlab o'z kuchini avtomatik ravishda yo'qotadi.